E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Kelishik shakllarining tejab-tejalmay ishlatilishi

(Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” asari misolida)

Crossref Doi : https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-52

Qudratova Manija

Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishining 2-bosqich 206-guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tog‘ay Murod asarlarida kelishik shakllarining o‘rinli va o‘rinsiz, tejab-tejalmay ishlatilishi yoritib beriladi. Bundan asosiy maqsad kelishik shakllari qaysi vaqtda o‘rinli va qaysi vaqtda o‘rinsiz ishlatilishi mumkinligini aniqlashdir.

Kalit so‘zlar

Kelishik, Tog‘ay Murod, qaratqich kelishigi, jo‘nalish kelishigi, bosh kelishigi , chiqish kelishigi, tushum kelishigi, munosabat, tejab-tejalmay, noo‘rin .

Kelishik — ot yoki otlashgan so‘zning boshqa so‘zlar bilan aloqasini ko‘rsatuvchi grammatik shakl. U ot shakli ekanligi holda, birikma yoki gap tarkibida uning boshqa so‘zga tobelanishini ko‘rsatadi. Bu sintaktik munosabat kelishik shaklining o‘zi bilan, ko‘makchi yoki ko‘makchi vazifasidagi so‘z bilan birga ifoda topishi ham mumkin.

Kelishik miqdori turli tilda har xil. Masalan, ingliz tilida 3 ta, nemis tilida 4 ta kelishik mavjud. O‘zbek tilida 6 ta kelishik bo‘lib, ular bosh (shaklsiz), qaratqich (shakli -ning), tushum (shakli -ni), jo‘nalish (shakli –ga,(-ka, -qa)), o‘rin (shakli -da), chiqish (shakli -dan) kelishiklaridan iborat. Shulardan qaratqich kelishigi ot tomonidan boshqarilib, hokim so‘z egalik qo‘shimchasini olib keladi: kitobning varog‘i. Qolgan tushum, jo‘nalish, o‘rin, chiqish kelishikli otlar fe’l yoki sifat tomonidan boshqariladi: kitobni varaqladi, kitobga qaradi, kitobda yozilgan, kitobdan olindi.

Ko‘pgina asarlarda kelishik shakllarining qo‘llanilishi har xil usullarda tavsiflanadi. Kelishik shakllarining qo‘llanilishi me’yor nuqtayi nazaridan tejamkorlikni ham bildirib keladi. Ba’zi vaqtda ishlatilgan bu tejamkorlik o‘rinli va o‘rinsiz bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida Tog‘ay Murod asarlarida kelishik shakllarining ishlatilishini ko‘rib o‘tamiz. Kelishiklarning tejab-tejalmay ishlatilishi bu me’yor nuqtai nazaridan noo‘rindir. Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” asaridagi kelishiklarning qay tarzda ishlatilishini misol qilib olamiz.[1]

[1] Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom” Toshkent- 2022

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Keltirib o‘tiladigan bu misollar qaratqich kelishigining tejab ishlatilishiga misol bo‘la oladi.

“....Shunda, qishlog‘imiz do‘xtiriga bordim”. [2]Bu gapda “qishlog‘imizning do‘xtiriga”, - deb yoziladi, qaratqich kelishigi tejab ishlatilgan.

“...Hovli chetida oxur qildim. Bo‘zni shu oxurga bog‘ladim”. [3]Bu gapda “hovlining chetida”, - deb yoziladi.

“...Tarlonni otlar to’dasi surdi. Tarlon qalqib-qalqib, uloq naryog’iga gandiraklab o’tdi”.[4] Bu gapda “uloqning naryog’iga”, - deb ishlatamiz.

“...Nihoyat, uloq yerdan ko’tarildi. To’da asta-asta jonlandi. Otlar qulog’i lik-lik etdi. To’da pastga siljidi” . [5]Bu gapda “otlarning qulog’i” , - deb ishlatamiz. Ushbu gapda qaratqich kelishigidan tejab ishlatilgan.

“...To’da birdan jonlandi. Otlar yoppasiga chopdi : dupur-dupur-dupur...Otlar uloq tevaragida chopdi. Bor e’tiborlari uloqda bo’ldi”. [6]Bu gapda “uloqning tevaragida” , - deb ishlatishimiz kerak. Bunda qaratqich kelishigidan tejab foydalanilgan.

“...Soy yoqalab chopdim. Shunda-da bakovul ovozidan darak

bo’lmadi”. [7] Bu gapda “bakovulning ovozidan” , - deb ishlatsak bo’ladi.

“...Hushim boshimdan uchdi. Jon holatda Tarlon bo’yniga yopishdim. Mahkam quchoqlab oldim...” .[8] Bu gapda “Tarlonning bo’yniga” , - deb ishlatsak ham bo’ladi. Bunda qaratqich kelishigidan tejab foydalanilgan.

“...Ko’pkari oxirigacha yonboshlab yotdim”[9]. Bu gapda “ko’pkarining oxirigacha” , - deb ishlatishimiz kerak

“...Chavandozlar boshi egik bo’ldi. Bilmadik, deya yelka qisdi” .[10] Bu gapda “chavandozlarning boshi” , - deb ishlatsak bo’ladi.

“...Fayzulla chavandoz yiqilish zarbidan irg‘ib turib ketdi.Ust-boshlarini qoqdi”.[11]Bu gapda “yiqilishning zarbidan”,- deb ishlatsak bo‘ladi.

---

[2] Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom” Toshkent -2022, 7-bet
[3] Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom” Toshkent -2022,14-bet
[4] Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom” Toshkent -2022,31-bet
[5] Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom” Toshkent -2022, 31-bet
[6] Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom” Toshkent -2022, 31-bet
[7] Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom” Toshkent -2022, 33-bet
[8] Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom” Toshkent -2022, 34-bet
[9] Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom” Toshkent -2022, 38-bet
[10] Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom” Toshkent -2022, 38-bet
[11] Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom” Toshkent -2022, 40-bet

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

"...Fayzulla chavandoz tupugi ulkan ayg'ir sag'risiga sachradi".[12]Bu gapda "ayg'irning sag'risiga", - deb ishlatsak bo'ladi.

"...Uchlari bilak bilan egar qoshi sig'adigan qilib tugiladi. Uchlarini egar qoshiga ildi".[13] Bu gaplarda "egarning qoshi", "egarning qoshiga", - deb ishlatsak bo'ladi.

"...Qishloq mag'risidagi chimzorga bordim".[14] Bu gapda "qishloqning mag'risidagi chimzorga", - deb ishlata olamiz.

Keltirib o'tilgan gaplarda kelishiklardan tejab ishlatilganining guvohi bo'ldik. Quyidagi misollar qaratqich kelishigining tejalmay ishlatilishiga misol bo'la oladi.

"....Kambag'alni tuyaning ustida it qopadi, degani shu-da, - dedi". [15]Bu gapda "tuya ustida", - deb yozilishi ham mumkin, ma'no jihatidan o'zgarmaydi, gapda qaratqich kelishigidan tejalmay foydalanilganining guvohi bo'lamiz.

"...Siyohdonni olib, muallimning yuziga otdim". [16]Bu gapda "muallim yuziga otdim", - deb ishlatilishi ham mumkin.

"...Bobolarning ko'plari rahmatlik bo'ldi". [17]Bu gapda "bobolar ko'plari rahmatlik bo'ldi", - deb ishlatilishi ham mumkin. Bunda qaratqich kelishigidan tejalmay ishlatilgan.

"...Erkak zotining o'zi tugul, izlari-da yo'q emish".[18] Bu gapda "erkak zoti o'zi tugul", - deb ishlatsak bo'ladi. Bunda qaratqich kelishigi tejalmay ishlatilgan.

"...Ana, bildingizmi, elning gapi qayoqqa borayapti?" [19]Bu gapda "el gapi", - deb ishlatilsa ham bo'ladi. Bunda qaratqich kelishigidan tejalmay ishlatilgan.

"...Orqa kezanagi bolaning bilagiday bo'lib turadigan ot yaxshi edi". [20]Bu gapda "bolani bilagiday",- deb ishlatsak bo'ladi. Bu gapda qaratqich kelishigidan tejalmay ishlatilgan.

"...Etik baland poshnali etik, takaning terisidan bo'ladi". [21]Bu gapda "taka terisidan" , - deb ishlatishimiz mumkin. Ushbu gapda qaratqich kelishigidan tejalmay foydalanilgan.

[12] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 41-bet
[13] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 41-bet
[14] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 47-bet
[15] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 7-bet
[16] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 8-bet
[17] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 9-bet
[18] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 11-bet
[19] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 13-bet
[20] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 14-bet
[21] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 29-bet

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

"...Yuqorida chavandozlar salmoqlab-salmoqlab gapirishdi : -Odamning boshi aylanib ketadi-ya !".[22] Bu gapda "odam boshi" deb ishlatilishi ham mumkin. Ushbu gapda qaratqich kelishidan tejalmay ishlatilgan.

"...Bunday vaqtlarda ayrim chavandozlar qamchi dastasi bilan otning boshiga uradi".[23] Bu gapda "ot boshiga uradi" , - deb ishlatsak bo'ladi. Bunda qaratqich kelishigidan tejalmay ishlatilgan.

"...Jo'ra boboning gapini yerda qoldirib bo'lmaydi".[24] Bu gapda "bobo gapini" , - deb ishlatsak bo'ladi. Bu gapda qaratqich kelishigidan tejalmay foydalanilgan.

Keltirib o'tiladigan bu misollar tushum kelishigining tejab ishlatilishiga misol bo'la oladi.

"...Men Tarlon boshi uzra qamchi havolatdim" . [25]Bu gapda "qamchini havolatdim" , - deb ishlatishimiz kerak. Bunda tushum kelishigidan tejab foydalanilgan.

"...Chekkagirlar to'dadan uloq ololmaydi".[26] Bu gapda "uloqni ololmaydi", - deb ishlatishimiz mumkin.

"...Uloqni qoralikka bir marta olib borib tashash, to'dadan uch marta uloq ayirishdan ziyod!"[27] Bu gapda "uloqni ayirishdan ziyod", - deb ishlatishimiz mumkin.

"...Muallim yo'qlama qiladi".[28]Bu gapda " yo'qlamani qiladi", - deb ishlatishimiz mumkin.

"...Ustidan sovuq suv ichdi".[29] Bu gapda " suvni ichdi", - deb ishlatishimiz mumkin.

Keltirib o'tiladigan bu misollar tushum kelishigining tejalmay ishlatilishiga misol bo'la oladi.

"...Keyin, ayvoniga, undan ichkariga kiribman".[30] Bu gapda "keyin, ayvoni, undan keyin ichkariga kiribman",- deb ishlatilishi mumkin

"...Ko'nglimni zo'r bir xushvaqtlik qitiqlar emish: ushbu behishtga birinchi bo'lib men qadam qo'yibman".[31] Bu gapda " ko'nglim zo'r bir xushvaqtlik qitiqlar emish", - deb yoziladi. "...Ko'zimni ochsam, uy zimiston, bolishni quchoqlab yotibman". Bu gapda "ko'zim

[22] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 34-bet
[23]Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 48-bet
[24] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 51-bet
[25] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 30-bet
[26] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 50-bet
[27] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022,51-bet
[28] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 52-bet
[29] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 52-bet
[30] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 10-bet
[31] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 11-bet

ochsam, uy zimiston, bolishni quchoqlab yotibman. Ushbu keltirilgan gaplarda tushum kelishigi tejalmay ishlatilgan.

"...Chavandozlar uloqni otlariga iskatdi. Uloq yonverini, tevaragini aylantirib ko'rsatdi".[32] Bu gapda "uloq yonveri, tevaragini aylantirib ko'rsatdi", - deb ishlatamiz.

"...Tarlon shashti qaytmasin, ruhi tushmasin, deya bir chaqirimcha yerga chopib borib, chopib keldim. Go'yo uloqni olib chiqdim". [33] Bu gapda "uloq olib chiqdim" , - deb ishlatishimiz kerak.

"...Uloqni ko'rib, yoqalarimni ushladim".[34] Bu gapda "yoqalarim ushladim", - deb ishlatamiz. Bunda tushum kelishigidan tejalmay ishlatilgan.

"...Yemni kamroq berdim".[35] Bu gapda "yem kamroq berdim",- deb ishlatsak bo'ladi.

Keltirib o'tiladigan bu misollar jo'nalish kelishigining tejab ishlatilishiga misol bo'la oladi.

"...Ertalab ta'til chiqdim" . [36]Bu gapda "ertalab ta'tilga chiqdim" , - deb yoziladi. Bunda jo'nalish kelishigi tejab ishlatilgan.

Keltirib o'tiladigan bu misollar o'rin- payt kelishigining tejalmay ishlatilishiga misol bo'la oladi.

"...Uloq goh sho'rchiliklarda, goh bizda, goh vaxshivorliklarda yurdi. Boysunliklarga tegmadi". [37]Bu gapda "goh sho'rchiliklar, goh biz, goh vaxshivorliklarda yurdi", - deb ishlatsak bo'ladi. Ushbu gapda o'rin-payt kelishigidan tejalmay ishlatilgan.

Ushbu misollardan Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asaridagi kelishiklardan qay tarzda ishlatilganini guvohi bo'ldik. Bu asarda asosan qaratqich kelishigidan tejab-tejalmay ishlatilgan. Buni o'rganishimizdan asosiy maqsad kelishiklar qay tarzda tejab yoki tejalmay ishlatilishini o'rganish va fanda buni samarali qo'llay olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022

[32] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 29-bet
[33] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 31-bet
[34] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 45-bet
[35] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 45-bet
[36] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 11-bet
[37] Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" Toshkent -2022, 39-bet